

Course: History of the Eastern and Western philosophy

Lecture 14: Philosophical interpretation of the concepts of truth, interest and human activity in pragmatism

Lecturer: Dr. Gulnoz Ruzmatova



MAVZU: PRAGMATIZMDA HAQIQAT, MANFAAT VA INSONIY FAOLIYAT TUSHUNCHALARINING FALSAFIY TALQINI

REJA:

1. Pragmatizmning ijtimoiy-tarixiy, nazariy-g'oyaviy asoslari.
2. Charlz Pirs - pragmatizm asoschisi.
3. Pirs tamoyillari va haqiqat masalasi.
4. Wilyam Djems pragmatik falsafasi
5. Jon Dyui pragmatizmi

Tayanch soʻz va iboralar:

Pragmatizm, pragma, shubha-
ishonch taʼlimoti, fan uslubi, Pirs
tamoyili.

1

- Charlz Pirs qarashlari asosida “haqiqat”, “ishonch” va “bilim” tushunchalari o'rtasidagi farqli va umumiy jihatlarini aniqlash orqali, ularning mazmuni ochib beriladi va ta'riflariga oydinlik kiritiladi;

2

- Charlz Pirsning haqiqat va bilim munosabati to'g'risidagi qarashlari, ilmiy bilishda haqiqat va bilim mutanosibligi, haqiqatning gnoseologik xususiyatlari aniqlanadi va nazariy asoslanadi;

3

- Charlz Pirsning asarlarida pragmatik haqiqatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarining namoyon bo'lishi yoritib o'tiladi:

Charlz Sanders Pirs (1839-1914)

Pragmatizm asoschisi – Amerika mutafakkiri, matematigi, mantiqshunos va faylasuf Charlz Sanders Pirs ushbu atama mualifi hisoblanadi. Pirsdan so'ng uning vatandoshlari – U.Jeyms, J.G.Mid, Buyuk Britaniyada – F.K.S.Shiller pragmatizmni yangidan yangi muammolari doirasini rivojlantirganlar.

Charlz Sanders Pirs

Charlz Sanders Pirs 1839 yil 10 sentabrda Kembridj, Massachusetsda tugʻilib, 1914 yil 19 aprelda Milford, Pensilvaniyada vafot etgan. Pirs 1863 yil kimyo fanlari magistri ilmiy darajasini olgan. 1867 yili u Amerika sanʼat va fan akademiyasining aʼzosi boʻlgan. Pirs 1879 yildan boshlab Jons Xopkins universitetiga mantiq fanidan oʻqituvchi qilib qabul qilingan. Ayni shu kezlarda u falsafa, mantiq va semiotika bilan yaqindan qiziqqa boshlagan. Keyinchalik esa u nafaqat amerikaning mashhur faylasufi balki mantiqshunos, matematik, til nazariyotchisi sifatida ham eʼtirof etiladi. Pirs falsafada ilk morotaba faneron atamasini olib kirish bilan bir qatorda tixizm deb nomlangan konsepsiyaga asos solgan. Shuning uchun ham buyuk nemis faylasufi Apel Pirsni “Amerika falsafasining Kanti” deb atagan.

Charlz Sanders Pirs (1839-1914)

Haqiqat shunday narsadirki, biz uning borligiga ishonamiz. Shubhadan ishonchga o'tish uch bosqichni bosib o'tadi: abduksiya (gipotezani, taxminni o'rtaga surish), deduksiya (taxmindan oqibatni eltirib chiqarish va uning aniqligini tekshirish) va induksiya (oqibatlarni tajribaviy tekshirish). Hosil qilingan ishonch to'rtta vosita orqali mustahkamlanishi mumkin.

«Pragmatizm» asl ma'noda foydali faoliyatga undovchi, «foydaga» qanday qilib erishish yo'llari va usullari haqida mulohaza yurituvchi ta'limotdir. «Foyda» tushunchasi pragmatizmدا «tajriba» yoki «amaliyot» tushunchasi bilan aynanlashtiriladi. Pragmatizm AQSh ijtimoiy-madaniy muhitining mevasidir. U AQShdagi iqtisodiy, ma'naviy ehtiyojlarga xizmat qiladi va ularning manfaatlarini ifodalaydi. Pragmatizm ma'lum darajada erkin bozor iqtisodiyotining falsafasi hamdir. U biznes uchun, jumladan, har qanday «foydali» faoliyatni tashkil etish uchun qulay bo'lgan metodologik qurol sifatida Amerika ishbiarmonlari, menedjerlari, siyosatdonlariva davlat arboblari o'rtasida keng yoyilgan.

Charlz Pirsning faoliyati va boshqa falsafiy oqimlarda haqiqat masalasi

Bizning ishonchimiz yoki e'tiqodimiz (nimalargadir ishonish) – bu muayyan sharoitlarda ishlab chiqilgan ko'nikmalar asosida muayyan tarzda faoliyat ko'rsatishga tayyorligimizdadir. Ishonch – bu inson intilgan narsaga aqlning qoniqqan holatidir.

Charlz Pirs falsafasida haqiqat masalasini o'ziga xos talqini

Haqiqatni kitoblardan va
pand-o'gitlardan emas,
“o'zimdanda yoki hayotning
buyuk kitobidan izladim”.

Tirishqoqlik usuli. Tirishqoqlikka amal qilgan kishi tanqid va dalillarga qaramay o'z qarashlarida sobit turadi. Obro' e'tibor usuli. Bu usul qoidasiga binoan ba'zi ishonchlar qo'llab-quvvatlanadi, ba'zilariga esa ta'qiqqlar qo'yilgan. Ma'qul ko'rilgan ishonchlar boshqa fikrdagilarni ta'qiq qilish yordamida o'rnatiladi. Ushbu usul o'rta asrlar davrida keng tarqalgan edi. Aprior usul. Bunda barqaror ishonchlarning shakllanishi metafizik nazariyalarning tug'ilish jarayonida o'z ifodasini topadi. Bu nazariyalarning yaratuvchilari ko'p hollarda o'z e'tiqodlarini aql bilan muvofiqlikda turgan deb tasavvur qiladilar.

Ch.Pirs fikricha, haqiqatni bilishda pragmatik metod muhim ahamiyatga ega. Bu samarali harakatni asoslab beruvchi falsafiy va bilish tizimlarini tahlil qilish va tuzib chiqish metodidir. Bu metodni U.Djems va D.Dyui yanada rivojlantirdilar. Bu metodning asoschilari nuqtai nazaridan, harakat inson hayotining asosiy shaklidir va muayyan maqsadni qo'yish va amaliy faoliyatni rejalashtirishning asosiy boshlang'ich sharti bo'lib xizmat qiladi.

Pragmatik haqiqat va uning bilishdagi ahamiyati

Haqiqat mezoni amaliyotda o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham pragmatizm falsafasining asoschilari Ch.Pirs va U.Djems nazariyaning haqiqiylikni uning amaliy samaradorligi va voqe'ilikka muvofiq kelishi ham emas, mavjud bilim sistemasi bilan mosligi ham emas, balki amaliy nazariya natijasining foydalilik darajasi uning haqiqiylik bilan belgilanadi deb yozadilar.

Inson bir da'voni ilgari surar ekan, insonuning bu da'voga ishonch darajasi turlicha bo'ladi. Xukmning haqiqiylik me'yori uning haqiqiyligiga sub'ektning ishonish darajasi bilan belgilanadi, ishonch darajasi qancha bo'lsa, fikrlovchi kishi shuncha katta qoniqish xosil qiladi. Ishonchlilikka erishish “bu ishonchning haqiqiy yoki yolg'on ekanligiga bog'liq bo'lmagan holda bizga qoniqish bag'ishlaydi... biz mana shu haqiqat deb o'ylaydigan ishonchni izlaymiz” (Pirs).

Pirs fikriga ko'ra, tafakkurning qadri, muhimligi hayotiy masalalarni hal qilishda amaliy natijalarining samaradorligi bilan belgilanadi. Bilimni hayotga tadbiq qilish, unda foydalana bilish muhimdir. Pragmatizm gnoseologik muammolarga emas, balki inson faoliyatiga ko'proq e'tibor beradilar.

Pragmatizm uchun eng avvalo insoniyatning ijtimoiy tajribasi muhim. Pragmatizm o'z vazifasini ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish uchun metod yaratishda ko'radi. Haqiqat esa ob'ektivlikni ongga muvofiqligi emas, balki uni amaliyotga tadbiq qilish natijasida erishilgan yutuq va foydaligidadir

Pirs ta'biricha, pragmatizm shunday falsafiy oqimki, u tushuncha va e'tiqodning ma'nosini aniqlashga yordam beradi, g'oya va tushunchalar, faqat tadqiqotchi tomonidan tekshiruvdan o'tgandagina ahamiyatga ega bo'ladi. Pirs o'zining "E'tiqodning o'rnatilishi" nomli asarida (1878–1879) e'tiqod va burch o'rtasidagi farqni ajratishga urinadi. Uning fikricha burch harakatga undaydi va e'tiqodga erishish uchun kurashni raqbatlantiradi. U shubhalanish nazariyasiga asos solib, uning asosiy tomonlari sifatida e'tiqod va ma'no tushunchalarini oladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Pirs umuman o'z davrining har tomonlama kamol topgan kishisi edi. Bir vaqtning o'zida u geodezist, faylasuf va mantiqchi, matematik va belgilar nazariyasining asoschisi bo'lgan. Pirsning falsafiy qarashlarini shakllanishiga Kont, Dj. Berkli ta'sir ko'rsatdi

Pragmatizm haqiqatni nazariy (gnoseologik) masala sifatida tan olmaydi. Uningcha, haqiqat va amaliyot yaxlit holda namoyon bo'lsagina biron ma'noga ega bo'ladi. Dyui iborasi bilan aytganda haqiqat va amaliyot birligi individ manfaatida aks etadi. Manfaat tushunchasi esa, o'z navbatida individning sub'ektiv qiziqishlarini qondiruvchi narsani anglatadi.

Wilyam Djems (1842-1910)

Djems Pirsning pragmatik qoidalarini rivojlantirib unga volyutarizm nuqtai nazaridan yondoshganligi tufayli, uning oqibatida irodaga asoslangan haqiqat nazariyasi vujudga keldi. Ana shu iroda inson tajribasida markaziy o'rinni egallaydi. Bizdan tashqarida bo'lgan ashyolarni ham qo'shib hisoblaganda bizning tajribamizda bo'lgan barcha narsa irodaga bog'liqdir.

Wilyam Djems (1842-1910)

«Haqiqiy» va «foydali» ifodalari Djems nazarida bir xil ma'noga egadirlar. O'z navbatida, foydali narsa iroda orqali ifodalanadi. Djems fikricha, voqelikni biz qanday tasavvur etsak, shundayligicha namoyon bo'ladi, ya'ni biz uni qanday ko'rishni xohlasak, o'shanday ko'rinadi.

Wilyam Djems (1842-1910)

Djemsning diniy e'tiqodining asosida ham iroda yotadi. Garchi faylasuf hech qayerda Xudoning mavjudligi haqida yozmagan bo'lsa ham, uning fikricha, tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Xudoga ishonishning kishilar uchun ulkan ahamiyati bor. Xudoga ishonish – bu bizning irodamizning omilidir.

Wilyam Djems (1842-1910)

Djems haqida shu narsani ta'kidlash lozimki, u falsafaga ruhiyat orqali kiradi. Tabiiyki, uning falsafiy ta'limotida inson ruhiy faoliyatining tabiatini tadqiq qilishga urinish yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Shuning uchun Djemsni falsafiy muammolardagi obyektiv mazmundan ko'ra subyekt bilan bog'liq bo'lgan tomonlari, birinchi galda kishining sezgilari ko'proq qiziqtiradi.

Djon Dyui (1859-1952)

Pragmatizmning yana bir namoyandasi J.Dyui (1859-1952)dir. Dyui falsafasi uchun markaziy muammo - «tajriba» tushunchasidir. Biroq u «tajriba» tushunchasiga biron bir arzigulik aniq ta'rif bermaydi, «tajribani» hayot tushunchasi bilan aynanlashtiradi. U «tajriba»da uchraydigan tushunchalar asosida nima yotadi, degan savolga ong mazmunini tashkil etuvchi narsalar bo'lsa kerak, deb javob beradi.

Djon Dyui (1859-1952)

Dyui va umuman pragmatizm uchun xarakterli tomon shundaki, ular ilmiy bilishda tajribaga katta e'tibor berishadi. Darhaqiqat, voqelikni bilishda tajriba katta ahamiyatga ega. Biroq bu tajribani amalga oshirish yo'llari, usullari ham muhimdir. Tajriba ko'r-ko'rona tarzda olib borilishi yoki ma'lum aniq dalilga asoslanishi kerakmi? Bu - muhim ahamiyatga egadir. Dyui falsafasida bu masala ochiq qoladi. U tajriba natijasining «foydali» tomoniga e'tiborni qaratadi.

Djon Dyui gnoseologiyasi

Materializm va idealizm o'rtasidagi munozara (duneqarash, anglash) qo'pol ishchi mehnati va oliy ruhiy faoliyat ko'rsatuvchilari orasidagi keskin farq bo'lgan vaqtda dolzarb edi; aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi farq kamayib borar ekan, materializm va idealizm o'rtasida kelishmovchiliklar silliqdashib, kamayib boradi; kelgusida, Dyui fikricha, aqliy va jismoniy mehnat bir-biri bilan birlashib ketgach, materializm va idealizm o'rtasidagi farq ham yo'qoladi; lekin aqliy mehnat g'olib bo'lar ekan, u jismoniy mehnatni (singdirib yuborib, oxir pirovardida u yengib chiqadi. Hamda idealizm ham materializmni yengadi va duneqarashning anglashning asosiy usuli bo'lib qoladi.

Dyui tomonidan qilingan kashfiyot, ilmiy muammoli holat haqidagi uslubni ishlab chiqishda va o'qitishda

Aniq bilim va ilmiy uslubdan to'g'ri foydalanish muammoli holatlarning oldini oladi va hal qiladi, lekin yuqoridagi holat boshqa sifatni keltirib chiqaradi; demak, anglash bilishning sifat o'zgarishlariga olib keladi, bilish obykti jismning borligini o'zgartiradi.

Djon Dyui gnoseologiyasi

Ongning oliy ko'rinishi - sof g'oyalarining anglanishi – ko'pchilikka xos emas, chunki, «sof g'oya» turg'un bo'ladi. Doimiy va universal, ular nazariya va amaliyot bilan tekshirilgan bilim beradi

Oliy ruhiy faoliyat (toza g'oyalar orqali ruhiy anglash bu alohida tayyorlangan odamlarga xos, ya'ni mehnat bilan shug'ullanmaydigan, yaxshi bilimli jismoniy kishilarga xos)

Xissiy, ong bu hammaga xos, lekin tashqi olamning o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda (fikir bildirish tasavvur) odamlar haqiqiy bilimga yetib bora olmaydilar

Xissiy bilimlar jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi odatda ma'lumotga ega bo'lmagan odamlarda bo'ladi (ishchi, dehqonlar, sotuvchi va h.k.)

Tarixan mehnat quyi jismoniy faoliyat va yuqori ruhiy faoliyatga bo'lingan ekan, demak ikki xil dunyoqarash ham mavjud bo'ldi.

Materialistik

G'oyaviy

Djon Dyuning ilmiy uslub haqidagi ta'limoti

Asosiy masalalar

Uslub - bilimlarni olish, olingan bilimlarni odam tajribasi davomida ishlatish jarayoni (tartibi).

Ilmning va ilmiy uslubning asosiy vazifasi - odamning o'z maqsadi yo'lida ishlatadigan bilimlari.

Maqsadga yetaklagan uslub - haqiqiy;

Maqsadga yetaklamaydigan yoki yetishga halaqit bergan uslub - nohaqiqiydir.

Uslub maqsadga olib boruvchi vosita, ya'ni instrumentalizm deb ataladi

Dyui tomonidan qilingan xulosalar instrumentalizm va dialektika g'oyalaridan olingan.

Uslub umuman bo'lishi mumkin emas (tajribaga qaratilmagan uslub, e'tiborga loyiq emas);
Aniq maqsadga yetish uchun aniq uslublar mavjud;
Demak, uslubning faoliyati uchun zaruriy aniq mexanizmni topish kerak.

Dyui muammoli holatlar va uni hal etish yo'llari haqidagi ta'limotni uslubning aniq mexanizmini izlash uchun keltirib chiqardi.

Ta'limot mazmuni

Uslubga (tajribadagi kabi) muhtojlik (shuningdek tajribada ham) zamonaviy (haqiqiy) shubha bo'lganda paydo bo'ladi, bu holda u keyingi harakatlarga xalal beradi;

Ushbu zamonaviy shubha «muammoli holat»ni yuzaga keltiradi - aniq (istagan) hayotiy holatlarni aniq qadamlar bilan yechish mumkin;

Muammoli holatlarni hal etishi (masalani hal etishda) muqobilini topishni tanlash bilan bog'liq;

Ilmiy uslubning maqsadi - muammoli holatni hal etilgan holatga olib kelish;

Ilmiy uslub muammoli holatni yechimini topgan holatga keltirishda harakatga keladi.

Aniq qadamlar (muammoli holatlarni haqiqatga aylantiruvchi bosqichlar)

Qiyinchiliklarni sezish, aniq tushuntirishga ega bo'lmagan to'siqlarda – bu vaqtda bu qismlarning kelib chiqishni izlash, muammoni hal etish uchun to'g'ri shakllantirish zarur;

Muammo aniq shakllantirilgandan so'ng, noaniq holat muammoga aylanadi; shunda maqsadni aniq belgilab olish, bo'lishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni sezish lozim;

Gipotezalarni aytish (harakatlar ketma - ketligi) muammoni hal etish, muammoli holatni yo'qotish vazifasini bajaradi;

Gipotezaning tanqidiy tahlili; nazariy modellashtirish (tajribaga asoslangan oldindan ko'ra olish) maqsad ga yetishning har bir davrida gipotezaning amal qilishi.

Demak,
ilmiy uslub (uning
harakatlarining in'ikosi bilan)
muammoli holatlarni hal qilingan
holatlarga aylantiruvchi aniq
qadamlardir

Oxirgi qarorni qabul qilish rejalashtirilgan
taxminlarni amalga oshirish, ishlatilgan
gipotezani haqiqatga aylanganligini (natijaga
erishilgan bo'lsa) eksperimental tekshirish
yoki (natijaga erishilmasa) noto'g'riligini
ko'rsatish vazifasi turadi

**Djon Dyui ilmiy uslub to'g'ri kelishi shart bo'lgan shartlarni
ajratib ko'rsatadi:**

O'zini tuzatishga qobiliyat (yangi orttirilgan tajribaga ko'ra ijobiy
yoki salbiy bo'lishi mumkin);

Faoliyat ko'rsatish uchun qobiliyat (ishlatilayotgan ilmiy uslub
tashqi olamni aks ettirishga emas, shu bilan harakat ham qila
bilishi kerak);

Haqiqiy (faqat maqsadga olib boruvchi uslublarning keyingi
tadbiq etishga loyiq).

Djon Dyui empirizmi (tajriba - uning fasafasining asosiy tushunchasi)

Dyui o'z falsafiy yo'nalishiga ko'ra, empirist bo'lgan, ya'ni tajribaga alohida o'rin ajratgan

Birinchi ta'sir g'oyasini inkor qiladi, butun mavjudotning birinchi sababini izlashni mazmunsiz deb hisoblaydi;
Falsafaning asosiy tushunchasi tajriba degan fikrini ilgari suradi, uni o'rganish uchun butun falsafiy tadqiqotlarni jamlash kerak;

Odam ongidan barcha narsalarni – tug'masini ham, odam hayoti jarayonida keyin orttirilganini tajriba so'zi ostida tushunadi;

Odam ongi - ya'ni tajribani tashuvchisi alohida ahamiyat bergan;

Tajribani: sezgir, o'ta sezgir (spiritik, ruhiy), diniy, axloqiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa, ya'ni tajriba shu holida hayotning hamma jabhalarini o'zida jamlashini aniqlash.

Djon Dyui ijodida axloq va ijtimoiy falsafa masalalari

Asosiy holatlar

Odamzod intiluvchi yagona «oliy manfaat» mavjud emas;

Maqsad va manfaat har xilligi mavjud;

Maqsad va manfaat noaniq emas, aniq bo'ladi;

Asosiy manfaat bu – salomatlik, boylik, nomus, yaxshi nom, do'stlik, jamiyat tomonidan yaxshi baholanish, ma'lumotlilik, kamtarlik, adolatlilik, xayrihoxlik;

Ko'pchilik odamlar yuqoridagi manfaatlarga intiladilar, xuddi shu manfaatlarga emas, aniq ko'rsatilgan manfaatning katta-kichikligiga intiladilar;

Birorta manfaatga yetishish, tajriba sifatining o'zgarishiga olib keladi;

Demak, o'sishning o'zi hamma o'rinlarda asosiy axloqiy maqsad bo'ladi;

Axloqiy qonunlar (o'ldirma, o'g'irlama va h.k.) absolyut xarakterga ega emas (masalan, urushda dushmanga qarshi emas) va adolatli (yoki adolatsiz) faqat alohida holatda bo'ladi;

Demokratiya odamzodning umumiy yashashning optimal shaklidir;

«Maqsad vositalarni oqlaydi - degan shior mohiyatiga ko'ra noto'g'ri va u olib tashlanishi kerak;

Maqsad vositalarga, vositalar maqsadga mos kelishi kerak; noloyiq bo'lgan vositalar albatta maqsadning sifatini o'zgartiradi (maqsad vositaga mutanosib bo'ladi);

Demokratiya zo'ravonligi va urushdan voz kechish kerak;

Faqat tinch vositalarni ishlatish kerak (bu butun odamzodga tegishlidir);

Jamiyat ijtimoiy qarama-qarshiliklarini silliqlaydi, ijtimoiy o'zgartiradi;

Ijtimoiy o'zgartirishlarning asosiy vositasi - fan uslublari axloq va ta'limda yuqori texnologiyalarda ishlatishda namoyon bo'ladi.

Sinash uchun savollar

- 1. Pragmatizmning asosiy falsafiy mazmuni nimada?**
- 2. Pragmatizmدا haqiqat masalasi qanday yechim topadi?**
- 3. Ch.Pirs tamoyillari qanday mazmunga ega?**
- 4. U.Djemsning tajriba usuli nimadan iborat?**
- 5. Jon Dyui pragmatizmi mazmuni nimadan iborat?**

Adabiyotlar ro'yxati

1. Po'latova D., Ruzmatova G. G'arb falsafasi.

O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 525 b.

2. Ruzmatova G., Karimov R. Falsafa tarixi: Eng

yangi davr G'arb falsafasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2017. – 240 b.

**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAXMAT**